SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 1/S. Jild 4.

2024

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V4SI1Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/1 (4) - 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2024**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Fayziyev O'rinboy Toshmuhammad o'g'li*
O‘ZBEKISTONDA ALOHIDA TA‘LIM EHTIYOJIGA EGA BO‘LGAN INSONLARNI IJTIMOIY HIMOYALASH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR ........ 9-16

*Эсонов Зиёдбек Юлдашевич*
ФАРҒОНА ВОДИЙСИ МИНГ ЎЗБЕК УРУҒИ МАНБАЛАРИ ТАРИХИДАН ........ 17-22

*Rajapov Mardonbek Qosimboy o‘g‘li*
AFRIG’IYLAR SULOLASI TARIXINING TURK TILLI TADQIQOTLARDA YORITILISHI ........ 23-26

*Исмоилова Нигорахон Усмонжановна*
НАЛИВКИН И ЕГО СВЕДЕНИЯ О ТУЗЕМНОЙ ЖЕНЩИНЕ ........ 27-34

*Мирхакимова Феруза Холдоржон кизи*
ВЗГЛЯД В ИСТОРИЮ МЕМОРИАЛЬНОГО МУЗЕЯ САДРИДДИН АЙНИ ........ 35-40

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Zhao Rong*
RESEARCH ON THE CONSTRUCTION OF CORE CURRICULUM STANDARDS FOR CROSS-BORDER E-COMMERCE MAJORS BASED ON HIGHER VOCATIONAL EDUCATION IN INNER MONGOLIA ........ 41-48

*Husanboyev Sadafbek Yorqinjon o‘g‘li*
FARG‘ONA VILOYATIDA AGROTURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RESURS SALOHIYATINI BAHOLASH ........ 49-58

*Malikova Gulhayo Turdali qizi*
TIJORAT BANKLARDA INVESTITSION FAOLIYAT TAHLILI ........ 59-64

*Maxmudov Anvarjon*
SOLIQ HUQUQBUZARLIKLARINI TARKIBI, SHAKLLANISH MANBALARI VA ULARNI IQTISODIY MOHIYATI ........ 65-75

*Мухитдинов Ахрор*
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТДА ЯГОНА МАРКАЗЛАШГАН ДИСПЕТЧЕРЛИК ХИЗМАТИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ ........ 76-82

*Jurayev Xusan Atamuratovich*
KORXONANI MOLIYAVIY SOG'LOMLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 83-89

*Butunov Shaymardan Berdiyarovich*
NOANIQLIK ORQALI HARAKAT QILISH: IQTISODIY BEQARORLIK SHAROITIDA MOLIYAVIY TAHLIL ........ 90-96

*Islomova Mohlaroyim Inomjon qizi, Ortiqova So'g'diyona Abdusodiq qizi, Abdurahimova Zulhumor Azimjon qizi*
TURIZM XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNI QO’LLASH ........ 97-103

*Содиқов Анвар*
ЎЗБЕКИСТОН ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИ ИСТИҚБОЛЛАРИНИ КЎП ОМИЛЛИ ЭКОНОМЕТРИК МОДЕЛЛАР АСОСИДА БАҲОЛАШ ВА МУҚОБИЛ СЦЕНАРИЙЛАРИНИ АНИҚЛАШ ... 104-116

*Norov Asror Egamberdiyevich, Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich*
O'ZBEKISTONDA DOKTORANTURA FAOLIYATI YO'LGA QO'YILGAN OLIY TA'LIM VA ILMIY TADQIQOT MUASSASALARI ........ 117-122

**09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Эшонкулова Нуржахон Абдужабборовна*
ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТЛАРИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ: ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛ ........ 123-130

*Khalilova Shakhlo Abdurashitovna*
IBN SINA AND HIS CONTRIBUTION TO SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION: RETHINKING THE HERITAGE OF EASTERN THINKERS ........ 131-136

**10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Saidov Hakim G'ofurovich*
VATANPARVARLIK VA MILLIY G'URURNING FALSAFIY KATEGORIAL NEGIZLARI ........ 137-141

*Jabborov Jamshid Azimovich*
MA'NAVIY EHTIYOJLAR JAMIYAT MA'NAVIY HAYOTINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA ........ 142-148

*Соатов Ғайрат*
БАЙРАМЛАР – МИЛЛАТНИНГ ОЛИЙ ҚАДРИЯТИ ........ 149-156

*Raxmatova Xolidaxon Xolikovna*
NAQSHBANDIYLAR EHTIROMIGA SAZOVOR BUYUK ZOT ........ 157-161

*Wang XiaoYu*
AN ANALYSIS OF THE MYTHICAL PATTERNS IN ULYSSES FROM THE PERSPECTIVE OF ARCHETYPE THEORY ........ 162-170

*Mamadkulova Kamila Abdukhalikovna*
FEATURES OF 19th CENTURY LITERATURE: ROMANTICISM AND REALISM ........ 171-175

*Aripova Saodat Taxirovna*
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI ........ 176-181

*Xudoyqulov Behzod Abbosovich*
ITALYAN TILIDAGI FRAZEOLOGIK IBORALAR TARJIMASI VA ULARNING O'ZBEK TILIDAGI EKVIVALENTLARI ........ 182-187

*Mavlonova Gulnora Abdig'ani qizi*
ADABIYOTDA QO'LLANILGAN EVFEMIZMLAR (ROMAN VA SHE'RIYAT) MISOLLAR BILAN ........ 188-192

*Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Izzatilloyeva Sevinch Nusratilloyevna*
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "YAXSHILIK" KONSEPTINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI ........ 193-197

*Djurayeva Orzigul Gafurovna*
QAXXOR BAXSHI RAHIMOV IJODINING O'RGANILISHI ........ 198-204

*Gafarova Shahnoza Hayrullayevna*
TIL VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ........ 205-209

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи*
ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ОМИЛЛАРИ ВА ЗАРУРИЯТИ ........ 210-215

*Sarvinoz Sunnatillaeva*
PROCEDURAL CHALLENGES IN THE REGULATION OF ABUSE OF DOMINANT POSITION IN UZBEKISTAN ........ 216-222

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Soliyev Ibodulloxon Ismatullayevich*
FACTORS AFFECTING THE EFFICIENCY OF REFORMS IN THE MANAGEMENT SYSTEM OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ........ 223-233

*Shokirov Poʻlat*
TALABALARGA ATLETIK GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHING USLUBIY ASOSLARI ........ 234-238

*Begmatova Dilnoza Muxtarovna*
JAHON MIQYOSDA TA'LIM JARAYONI SUBYEKTLARIDA MADANIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH TENDENSIYALARI ........ 239-243

*Toʻrayev Panji Toʻxtayevich*
MILLIY KURASH MASHGʻULOTLARIDA UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIKNI TASHKIL ETISH VA SHAKLLANTIRISH ........ 244-248

*Axmedova Nafisa Isaxodjayevna, Azamatov Abdullo Isaxo’ja o’g’li, Lutfullina Rumiya Anvarovna*
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAKULTETLARI TALABALARI UCHUN ANTIDOPING QOIDABUZARLIKLARINING OLDINI OLISH MEXANIZMINI YARATISH ........ 249-256

*Egamberdiyev Javlonbek*
TA’LIM MUASASSALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL QILISH VA UNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI ........ 257-260

*Kenjaboev Abdisalim Erkaboevich*
ZAMONAVIY TA’LIM- TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK RAHBARNING KOMPETENTLIGI ........ 261-265

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/1(4) - 2024
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

**Rajapov Mardonbek Qosimboy oʻgʻli,**
OʻzR FA Tarix instituti tayanch doktoranti
E-mail: mardonbekoff@gmail.com

# AFRIGʼIYLAR SULOLASI TARIXINING TURK TILLI TADQIQOTLARDA YORITILISHI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Afrigʻiylarning kelib chiqishi, arablarning Xorazmni bosib olish tafsilotlari,Xorazmda Somoniylarning hukmronligi va Afrigʻiylar va Maʼmuniylar oʻrtasidagi ziddiyatlar turk tilli tadqiqotlarda qanchalik aks etishi tahlil qilinadi.
**Kalit soʻzlar:** Bagʻra, Askajavar II, Muhammad II, oli-Iroq, Beruniy, farigʻuniylar.

**Rajapov Mardonbek Kasimboy ugli**
Doctoral student of the Institute of History of the Russian Academy of Sciences

# COVERAGE OF THE HISTORY OF THE AFRIGHIDS DYNASTY IN TURKIC LANGUAGE RESEARCHES

**Abstract.** This article analyzes the origins of the Afrighids, the details of the Arab conquest of Khorezm, the rule of the Sãmanids in Khorezm, and the conflicts between the Afrighids and the Mãmunids as reflected in Turkic language researches.
**Key words:** Baghra, Askajavar II, Muhammad II, al-Iraq, Biruni, farighunids.

**Раджапов Мардонбек Касымбой угли**
Докторант Института истории РАН

# ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИИ ДИНАСТИИ АФРИГИДОВ В ТЮРК ЯЗЫЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

**Аннотация.** В данной статье анализируется происхождение Афригидов, детали захвата Хорезма арабами, господство Саманидов в Хорезме, а также конфликты между Афригидами и Маъмунидами, отраженные в турецкоязычных исследованиях.
**Ключевые слова:** Багра, Аскачавар II, Мухаммад II, Ал-Ирак, Бируни, фаригуниды.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N03

Mustaqillik sharofati bilan, turkiy xalqlari orasida siyosiy va iqtisodiy aloqalar mustahkamlandi, shuningdek, ilm-fan va texnologiya sohasida ham muhim hamkorliklar yoʻlga qoʻyildi. Ayniqsa, oʻtgan 5 yil ichida qardosh davlatlar bilan integratsiya jarayonlari sezilarli darajada kuchaygan bir davrda xorijda chop etilgan Oʻzbekiston tarixiga oid asarlar, tadqiqotlar va maqolalarni oʻrganish muhimdir. Chunki, vatanimiz tarixining muayyan mavzulari jahonda qay tarzda talqin etilishi, tadqiqotchilarning yondashuvlari va munosabati haqida muayyan tasavvur beradi. Bu yangi ilmiy yondashuvlar va metodologiyalarni qoʻllash tarixning turli xil masalalariga oydinlik kiritish va boyitish imkonini beradi.

Afrigʻiylar sulolasi tarixi bugungi kungacha oʻzining toʻliq yechimini topmagan masalalardan biri hisoblanadi. Toʻgʻri, bugungi kungacha sulola tarixining ayrim jihatlari baʼzi tarixchilar tomonidan yoritilgan.Ammo sulola tarixini toʻliq qamrab olgan, yaʼni yaxlit IV-X asrlardagi Xorazmdagi Afrigʻiylar davriga oid maxsus adabiyot mavjud emas. Afrigʻiylar davri tarixining ayrim tomonlari turk tilli tadqiqotlar ham oʻz aksini topgan boʻlib, asosan sulolaning hokimiyatga kelishi, turk xoqonligi davrida Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, arablarning Xorazmni bosib olish tafsilotlari, shuningdek, Somoniylar tasarrufidagi oli-Iroq yaʼni Afrigʻiylarning Xorazmdagi siyosiy vaziyati haqida toʻxtalib oʻtilgan. Ayrim tadqiqotchilar sulola tarixi boʻyicha yangi yondashuvlarni taklif qilayotgan boʻlsa, baʼzi izlanishlarda tadqiqotchilar subyektiv mulohazalarga yoʻl qoʻyganlarki, buning asosiy sababi ularning faqatgina fors va ingliz tilli tadqiqotlariga tayanganliklari hamda mavjud maʼlumotlarni vatanimiz hududida yaratilgan ishlar bilan qiyoslab oʻrganmaganliklari bilan izohlash mumkin.

Turk tilli adabiyotlarda Afrigʻiylar sulolasi tarixiga oid maʼlumotlar Z.V. Toʻgʻonning "Turkiy xalqlar tarixiga kirish" asarida uchratishimiz mumkin. Xususan, A.Z.Togʻonning Xorazmda mavjud shaharlarning nomlanishini oʻrganib, V.V.Bartold va M.Tomashek asarlarida Xorazm vohasidagi shahar nomlari xato oʻqilganligini va baʼzi shahar nomlari muallif tomonidan toʻgʻrilanganini alohida taʼkidlash lozim. Shuningdek, A.Z Togʻon V.V.Bartold ishlarini tanqid qilib, keltirilgan shaharlarning nomini aniq oʻqishni bilmaganligini yozadi[18].

A.Z Togʻon izlanishlarida Xorazmning ilk oʻrta asrlar tarixiga oid ayrim fikr-mulohazalari mavjud boʻlib, muallif Afrigʻiylarni Abdallar(Eftallar)dan ekanligini taʼkidlagan. Biroq nima uchun bunday fikrga kelganini asoslab bera olmagan.[17]. Keyingi tadqiqotchi A.Oʻzbayraktarning "Oli-Iroq.Somoniylar hokimiyati ostida boʻlgan Xorazm haqida yangi tadqiqotlar" va "Afrigʻ sulolasi: Xorazmshoh Muhammad II ning nasl-nasabi boʻyicha tadqiqot" nomli maqolalarida sulola tarixiga oid yangi yondashuvlar va fikr-mulohazalar bilan boyitilgan [3,8]. Muallif yozma manbalardagi maʼlumotlarni arxeologik tadqiqotlar, xususan tangashunoslik materiallarini qiyoslash asosida sulola tarixining bizga nomaʼlum qismini ochishga harakat qiladi. Muallif, Beruniy tomonidan keltirilgan 22 ta ismlarning barchasi xorazmshoh emas balki, manbalarda tilgan olingan oxirgi afrigʻiy xorazmshoh Abdulloh Muhammad ibn Ahmadning shajarasidir degan fikrni ilgari surgan va 305-995-yillarda mavjud boʻlgan Afrigʻiylar sulolasini 3 guruhga ajratadi: 1) islomdan oldingi ajdod Afrigʻ oilasi (305-711-yillar) ; 2) olis ajdod Askajavar oilasi(712-896-yillar); 3) yaqin ajdod Iroq oilasi (897-995-yillar)[3,155-157.b]. Muallif tangashunoslik manbalariga tayangan holda oxirgi Afrigʻiy hukmdor Abdullohning islomgacha boʻlgan ajdodlari yaʼni Afrigʻdan Azkajvargacha II boʻlgan davrda hukmdorlar emas, balki hukmron sulola vakillari boʻlganligini, Beruniy taqdim etgan shaxslar hukmron oilaning bir qismi boʻlgan boʻlsa-da, ularning hammasi ham taxtga oʻtirmagan yoki hukmronlik qilayotgan Xorazmshohlar uchun ajratilgan tanga zarb qilish sharafiga ega boʻlmagan degan xulosaga kelgan. Shuningdek, A.Oʻzbayraktar bu oʻrinda Beruniy tomonidan keltirilgan 22 ta hukmdor ismlari roʻyxati oli-Iroq sulolasining legitimligini mustahkamlash uchun tuzgan degan fikni ilgari surgan. Bu oʻrinda shuni taʼkidlab oʻtish lozimki, oʻrta asrlarda legitimatsiya uchun baʼzan hukmdorlar oʻzlarini tarixda oʻtgan mashhur sulolalarga bogʻlaganliklarini ham eʼtiborga olishi kerak. Masalan, gʻaznaviy kelib chiqishi turkiyligi aniq boʻlgan holda, oʻzlarini eron shohlari bogʻlagan holatlar ham uchraydi. Biroq Beruniy asarini 1000-yillarda yozib tugatganda, Afrigʻiylar sulolasi allaqachon Maʼmuniylar tomonidan xotima berilgan edi(995-yil).Agar A.Oʻzbayraktarning yuqoridagi yondashuvlarini

inobatga oladigan boʻlsak, Beruning oli-Iroq sulolasi legitimligini oshirishdan qanday manfaatdor edi degan savol tugʻiladi. Bu kabi savollarga oydinlik kiritish uchun kelajakda maxsus tadqiqotlar olib borish zarur.

Keyingi tadqiqotchilar I.Zakiy va A.Ustalar Juzjondagi Farigʻuniylar sulolasini Afrigʻiylar sulolasi sifatida taʼkidlab oʻtgan[5;13].Lekin Farigʻuniylar va Afrigʻiylar sulolasi alohida sulola boʻlib, sulolar oʻrtasida hech qanday bogʻliqlik jihati yoʻq edi.Farigʻuniylar shimoli-gʻarbiy Afgʻonistonda IX-XI asrlar oraligʻida mavjud boʻlgan sulola hisoblanadi. Farigʻuniylar haqida muallifi nomaʼlum “Hudud ul-olam” asarida “afsonaviy Faridun avlodi” degan sulola tilga olinadi. E.Bosvort asarlarida IV-X asrlarda Xorazmda hukmronlik qilgan Afrigʻiy sulolani “Katning al-Farigʻunlari” deb atagan[7]. Fikrimizcha mualliflar E.Bosvort fikriga tayangan holda Afrigʻiylar va Farigʻuniylarni bir sulola deb hisoblagan. Albatta bu yanglish fikr.

Afrigʻiylar sulolasiga oid baʼzi fikr-mulohazalarni G.Jejeli, S.Onur, Oʻ.Narin izlanishlarida kuzatishimiz mumkin. Ularning tadqiqotlarida “Xorazmshoh” unvoni Xorazm hududida hukmronlik qilgan sulolalarga nisbatan ishlatiladigan umumiy unvon boʻlib Afrigʻ oilasidan boshlanganini taʼkidlagan [11;15;16]. Tadqiqotchi E.Oʻzjan esa Beruniy maʼlumotlaridan foydalangan holda Siyovushning Xorazmni egallashi va keyinchalik bu hududni Kayxusrav va uning avlodlari boshqarib, “shoh” unvoni bilan tan olingani, fors oilasi boshqaruvi Afrigʻiy Bagʻraning hokimiyat tepasiga kelishi bilan tugashi va ushbu hukmdordan boshlab Xorazmda turkiy sulola boshqarishini qayd etgan[9]. Bu yondashuv ham maʼlum bir maʼnoda haqiqatga yaqin. Chunki, Afrigʻiy hukmdorlarni tilshunoslik nuqtai-nazardan tahlil qilgan Gʻ.Boboyorov ismlarning bir-nechtasini turkiy tildan kelib chiqqanini taʼkidlagan[18].Tadqiqotchilardan A.Oʻzaydin va A.Kurat izlanishlarida arab va fors manbalaridan foydalangan holda asosan arablarning Xorazmga bosqini tafsilotlari, arablardan keyin Somoniylar boshqaruviga oʻtishi voqealari bayon etilgan[1;2]. A.Teneri tadqiqotlarida faqat Anushteginiylarni xorazmshoh sifatida taʼkidlagan va oldingi 3 ta sulolaga “xorazmshoh” atamasini qoʻllamagan. Shuningdek, Afrigʻiylarni eron sulolasi sifatida qayd etgan[4]. A.Bademji esa “Xorazmshoh” atamasi eronliklar tomonidan Xorazm hukmdorlariga nisbatan qoʻllaniladigan umumiy unvon sanab, 4 ta sulolaga nisbatan ishlatgan [3, 156 b.].

H.Cheker va F.Chiftchi, B.Avji tadqiqotlarida Afrigʻiylaring yaqin qoʻshnilari bilan savdo-sotiq munosabatlari oʻz aksini topgan [6;10;12].

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, turk tilli tadqiqotlar orqali Afrigʻiylar sulolasining tarixini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi.Tadiqotlardagi xilma-xillikka qaramay, bir qator asosiy mavzular ajralib chiqadi, bu yonashuv va qarashlar Afrigʻiylarning kelib chiqishi, ularning hukmronligi, arablar bosqini taʼsirlari va keyinchalik Somoniylar davri hamda Maʼmuniylar bilan boʻlgan ziddiyatlar kabi jihatlarini oʻz ichiga oladi. Turk tadqiqotlari, ushbu jihatlarni tushunishga yangi tushunchalar kiritadi, tarixiy voqealardagi boʻshliqlarni toʻldiradi va yagona talqinlarga qarshi turuvchi muhim qarashlarni taklif etadi. Tadqiqotlar Afrigʻiylarning ahamiyatini faqat Xorazm hududi tarixida emas, balki kengroq qoʻshni hududlar va sulolalar bilan oʻzaro aloqalar kontekstida ham koʻrsatib berishga uringanliklarini ijobiy baholashimiz mumkin. Ushbu tadqiqotlar, sulola tarixida oid voqea tafsilotlarini koʻp qirrali yondashuvlar orqali boyitish va Afrigʻiylarning Markaziy Osiyodagi madaniy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanishlarga qoʻshgan hissalarini yanada toʻliq baholash imkonini beradi.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. A.Kurat. Kuteybe Bin Müslim'in Hvârizm ve Semerkand'i zabti. Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi Dergisi. Cilt VI. Sayı: 5. 1948 Kasım – Aralık.395-400
2. A.Özaydin.Hãrizm. Türkiye Diyanet Vakfı. İslam Ansiklopedesi.16 cilt. ss-218-2018.
3. A.Özbayraktar.Afrîğ Hanedanı: Hârezmşâh II. Muhammed'in Soyağacı Üzerine Bir İnceleme. İran Çalışmaları Dergisi. Cilt: 7, Sayı: 1.2023. , ss. 151-172
4. A.Teneri. Hãrizm. Türkiye Diyanet Vakfı. İslam Ansiklopedesi.16 cilt. ss-218-2018
5. A.Usta. Sãmãniler. Türkiye Diyanet Vakfı. İslam Ansiklopedesi.36 cilt. s-66
6. B.Avci.Selcuklularin ilk donemlerine Harezm bol.1.Harezm Bölgesi'nin İslam Orduları Tarafından Fethi 7-10.
7. C. E. Bosworth. Āl-e Farīgūn. https://iranicaonline.org/articles/al-e-farigun-a-minor-iranian-dynasty-of-guzgan-
8. C.Heravi, A.Özbayraktar. Âl-i 'irâk (Hârezm'de Sâmânîlere tâbi yüz yillik bir iktidar hakkinda yeni bir araştirma). Asobid. Cilt 2, Sayı 4 Aralık 2018 ss.61-73.
9. E.Özcan. Ebû'r-Reyhân Muhammed bin Ahmed el-Bîrûnî'nin Hayatı (973-1061). Milel ve Nihal nanç, kültür ve mitoloji araştırmaları dergisi cilt 10 sayı 3 Eylül – Aralık 2013.11-13
10. F.Çiftçi. Moğol Yenilgisi - Harezmşah Zaferi: 1221 Pervan Savaşı. Oğuz-TürkmenAraştırmalarıDergisi VI, 2, 2022, Aralık, 99.,
11. G.Ceceli Dursun.Hârizmşâhlar devleti'nde ilmî hayat (1097-1231).Doktora tezi. İstanbul-2015.s 2
12. H.Çeker. Moğol istilasina kadar Hârizm'de hanefîlik. Uluslararası Orta Asya'dan Anadolu'ya İslâmî İlimler Sempozyumu Bildirleri Kitabı. Eylül 2021.401,
13. İ.Zeki. Gençliğe örnek sultanlarin biyografilerinin anlatiminin önemi üzerine.Uluslararasi 21. Yüzyilda gençlik ve inanç eğilimleri. İlãhiyãt. Ankara.2022. s 373.
14. N.Vurgun. Hârezmşah devleti'nin diş politikasi. doktora-tez. konya-2O21. S-20,
15. Ö.Narin. Hârezmşah devleti'nde saltanat mücadeleleri. Sosyal ve Beşerî Bilimlerde Güncel Araştırmalar – II.2022.s 282
16. S.Onur. Harezm Türkçesinin İdil boyundaki tarihî. Doktora tezi.Istanbul.2023.7-10.
17. Z.V .Togan. Umumi Türk Tarihine Giriş. İstanbul, 1981. S. 60
18. К.Машарипов.Хоразмнинг. Ўрта Шарқ ва Ервопа давлатлари савдо марказлари билан билан тарихий алоқалари(V-XV асрлар). Урганч.2016. б-12.
19. Ғ.Бобоёров. Турк хоқонлиги даврида Хоразм. Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. Тошкент – Урганч. 2018.48-50.бб.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4SI1Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/1 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).